

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING PUBLITSISTIK MAQOLALARI TAHLILI

Sultonaliyeva Otikaxon Farxod qizi

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistik maqolalari tahlili hamda maqolalarida davrning dolzarb masalalarini aks ettirishdagi mahorati tahlil etilgan. XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy ,adabiy muhit,muallifning davr voqealariga munosabati uning 10-yillarida yaratilgan qator maqolalari tahlili misolida ko'rsatib berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: publitsistik,matbuot,maorif,adabiy muhit,ijtimoiy-siyosiy vaziyat,mustamlakachilik.

Publitsistika –jamiyat hayotidagi dolzarb ijtimoiy-siyosiy,iqtisodiy va ma'naviy masalalarni tahlil qiluvchi,jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi adabiy-jurnalistik ijod turi.Bu sohada ko'plab jadidlar,yozuvlar maqolalar yozishgani bizga ma'lum.

Shu borada,Mahmudxo'ja Behbudiy ham ko'plab publitsistik maqolalar yozib qoldirgan.Buyuk mutafakkir, adib, dramaturg, publitsist, jamoat va din arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr deb atalmish suronli davrda o'zbek xalqi tarixida yorqin iz qoldirgan o'lmas siymodir. Uning birinchi jahon urushi davrida Turkiston matbuotida e'lon qilgan maqollari sonini behbudiyshunoslar 200 tadan 300 tagacha deya hisoblaydilar. Hozirda bizda mavjud bo'lgan Behbudiy maqolalarini mavzu jihatidan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi maqolalar;
- Ilmiy-ma'rifiy mavzudagi maqolalar;
- Diniy mavzudagi maqolalari

Bizga ma'lumki, Mahmudxo'ja Behbudiy o'z davrining faol publitsisti sifatida yozgan maqolalarida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy muammolarni aks ettirish, ular orqali xalqni jaholatdan qutqazish uchun kurashgan. "Umuman, Behbudiyning publitsist sifatidagi faoliyati adib iste'dodining juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o'z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O'zining Millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ko'proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi. Muhimi shundaki, u XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi edi. Uning Millat va Vatan taqdiri haqidagi barcha qarashlari, avvalo, mana shu maqolalarida aks etgan edi". Haqiqatan ham Behbudiy maqolalarini o'qir ekanmiz, ularning mazmunida o'z davri ma'rifati uchun, millatini baxtli va ozod ko'rishi uchun tinmay kurashganligi aks etganligini ko'ramiz.

Behbudiy Turkistondagi og'ir ahvol axloqsizlik, fahsh illatning quloch yoyayotganini, ichkilikbozlikning avj olayotganini mustamlakaning natijasi deb bilarkan, yana bir sababni quyidagilarda ko'radi: "Eski hukumat zohiran bizni madaniy qilmoq uchun "ruskiy-tuzemniy" ismida bizning uchun maktablar ochib, o'z fahmlaricha, bizni dunyo va oxiratda nekbaxt, ya'ni nasorat (xristian) qilaturg'on missionerlarga topshirdilar. Bu maktablarga zohiran musulmon muallimi tayin etib, anga 15 so'mdan 25 so'mgacha vazifa berardilar. Albatta, bu pulg'a hech muqtadir kishi muallimlik qilmas edi. Digar tarafdan xufya prikazlar ila bu maktablardagi musulmon bolalarini oz ta'lim bermoqg'a va baqadri imkon amrini zo'ir va o'zini hayvon qilmoqg'a farmoyish qiladilar». Behbudiy juda yaxshi anglardiki, mustamlakachilar hech qachon Turkiston xalqiga o'z-o'zini boshqaruvini osonlik bilan berib qo'ymaydi. Shu bois u yozadi: "Turkiston rus va musulmonlari birlashib muxtoriyat haqqini majlisi muassisan (uchreditelnoye sobraniye) dan olmoqimiz kerakdur. Biz jonsizlik ko'rsatganda, muxtoriyat agarchi yuz sana so'ngra bo'lsun, bizg'a berilmaydur, azbaski, "Haq olinur, berilmas!"

Rossiyadagi keyingi siyosiy voqealar, 1917-yilning oktabrida hokimiyat tepasiga bolsheviklarning kelishi uning bu so'zlari nechog'lik to'g'riligini isbotladi. 1917-yilning 26-29-noyabr kunlari Qo'qonda O'lka musulmonlarining IV favqulodda quriltoyi bo'lib o'tadi.

27-noyabr tunida Turkiston Muxtoriyati e'lon qilinadi. U 1918-yilning 20-fevralida bolsheviklarning kuchli qurollangan qo'shinlari tomonidan qonga botirilib, tarqatib yuboriladi. Bu "Qo'qon voqeasi" nomi bilan tarixga kiradi. Turkiston Muxtoriyatining raisi bo'lgan Mustaf o Cho'qay o'g'li keyinchalik o'z xotiralarida quyidagilarni yozgan edi: "Biz kurashga o'zimiz tanlagan fursatda emas, Rusiya inqilobi jarayoninikeltirib chiqargan vaziyat ijobati bilan kirishdik. Ikkinchidan, subyektiv, ya'ni o'zimizdan bo'lgan omillar: Milliy manfaatlar yo'lida kurashish lozimligini bilganlari holda turkistonliklar o'zaro kuchli birlik qura olmadilar va bunga ulgurmadilar" Behbudiy fikricha, o'tmishini, tarixini bilmagan xalq o'zining xatolarini ham anglay olmas. U XX asr boshlarida Turkistonning haqqoniy tarixi yaratilmaganidan afsuslanarkan, "burungi qahramon bobolarimizning na yo'l ila taraqqiy va madaniyat davriga kirib va nima sababdan oxir munqariz bo'lib ketganlarini o'qub, bilib, xeyli ibrat olishni tarix kitoblaridan anglash mumkinligini" uqtiradi. O'z tariximizga oid xolis, haqqoniy kitoblarni esa turk bolalaridan chiqqan yozuvchilar amalga oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi. U ba'zi noshrlarning moddiy foyda ortidan quvib, xurofotlik qissa, hikoya va oshiqona g'azal kitoblarni bosayotganliklarini tanqid qiladi. Xullas Mahmudxo'ja Behbudiy o'z maqolalarida davrning dolzarb masalariga munosabat bildiradi. Yurtni, xalqni taraqqiy etgan ilg'or boshqa millatlar qatorida ko'rishni istaydi. Uning o'tgan asr boshlaridagi fikrlari hozir ham ahamiyati va qimmatini yo'qotmaganligi dahosining manguligidan nishonadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mahmudxo'ja Behbudiy.Tanlangan asarlar . 1-jild –Toshkent
- 2.Akbarali Sabirdinov .,„Mahmudxo'ja Behbudiy maqolalari talqini”.